



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKIL QILISH VA TAYYORLOV BOLALARDA AXLOQIY VA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Kodirova Muyassar Eshmamat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim" fakulteti
o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10399240>

ARTICLE INFO

Received: 09th December 2023

Accepted: 16th December 2023

Online: 18th December 2023

KEY WORDS

harakatli o'yinlar, sport, salomatlik, bola, rivojlanish, harakatli o'yinlar turlari, qo'llanishi, ahamiyati, kelib chiqish tarixi, jismoniy rivojlanish, ruhiyati, bola yoshi, shakllanish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada harakatli o'yinlar va ularning kelib chiqish tarixi va uni maktabgacha ta'lim tashkilotlarda qo'llashning ahamiyati, bolalarning jismoniy rivojlanishidagi o'rni haqida va harakatli o'yinlarni tashkil qilishda ota-onalar, tarbiyachi pedagog va jismoniy tarbiya yo'riqchisining ahamiyati haqida bayon etilgan.

Harakatli o'yinlar bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eng ko'p qo'llaniladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Harakatli o'yinlar qachon va qanday paydo bo'lgan va uning bolalar hayotidagi o'rni qanday?

Harakatli o'yinlarning kelib chiqishi qadimgi xalq pedagogikasiga borib taqaladi.

O'yinlarning kelib chiqishi va tarixi haqidagi ma'lumotlar bizgacha XI asrning buyuk lingvisti, tarixchisi, etnografi Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» kitobi orqali yetib kelgandir. Ushbu asarda o'zbek harakatli o'yinlarini boshlashdan oldin amalga oshiriladigan chaqirish, to'planish, o'yin boshi, chek tashlash kabi o'yin shakllaridan namunalar keltirilgan va harakatli o'yinlarning qanday qo'llanishi haqida bayon etilgan.

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida ham sport o'yinlaridan „qilichbozlik, kurash, ko'pkari...“ ga alohida e'tibor berilib, ularni yoshlarni jismonan baqquvat bo'lishlariga katta ta'sir ko'rsatishi ko'rsatib o'tilgan.

Ilk yoshli bolalar oilalarda bolaning dastlabki harakati bilan bog'liq ovunmachoqlar, ermak o'yinlar yordamida tarbiyalanganlar. Undan kattaroq yoshdagi bolalar hayotida rang-barang harakat mazmuniga ega bo'lgan (o'z ichiga bolalarni rom qiluvchi o'yin boshlanmalari, xirgoyilari, sanashmachoqlarni oluvchi) xalq o'yinlari katta o'rin olgan.

Maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab, bolalarda o'z xalqining urf-odatlarini, an'analarini, tarixini bilishga bo'lgan qiziqishni tarbiyalash maqsadida «Takomillashtirilgan ilk qadam» tayanch o'quv dasturida har bir yosh guruhi uchun o'rgatiladigan milliy va harakatli o'yinlar belgilab ko'rsatib berilgan.



Atoqli rus pedagogi P.F.Lesgaft «o'yinni bolani hayotga tayyorlashga yordam beruvchi mashq deb hisoblaydi». Bu mashq mustaqil faoliyat bo'lib, unda bolaning shaxsiy tashabbusi rivojlanadi va ahloqiy sifatlari tarbiyalanadi. U har bir o'yin maqsadga ega bo'lishi kerak deydi.

Buning uchun o'yindagi harakatlar bolaning o'zini boshqara olish malakasiga mos bo'lishiga; bu harakatlar tizimli mashqlarda oldindan o'zlashtirilgan bo'lishi lozim.

Harakatli o'yinlarni muntazam o'tkazish bolalarda o'z harakatlarini boshqarishni rivojlantirishga yordam beradi, ular gavdasini tartibga soladi, ya'ni turli zo'riqishda harakat qilishga o'rgatadi.

O'yinlar bolani juda chaqqonlik, muayyan maqsad va tezkorlik bilan harakat qilishga; qoidalarni bajarish, o'zini tutish, o'rtoqlikni qadrlay olishga o'rgatadi.

Albatta har qanday o'yinni tanlab olishda pedagog tarbiyachi bolaning yosh xususiyati va uning psixik rivojlanishiga alohida e'tibor berishi, va bu o'yinni tashkil qilishda alohida tashkil qilingan maydonchalarda olib borishi muhim hisoblanadi.

Harakatli o'yinlarning turlari va mazmuni.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga mo'ljallangan o'yinlarni quyidagi turlari mavjuddir:

1. Qoidali harakatli o'yinlar

a) mazmunli o'yinlar;

b) mazmunsiz o'yinlar

2. Sport o'yinlari.

Qoidali harakatli o'yinlarga mazmunli va mazmunsiz o'yinlar kiradi. Tarbiyachi har qanday o'yinni tanlashda va unga rahbarlik qilishda alohida bilimga ega bo'lishi shart hisoblanadi va uni amalga oshirish uchun maxsus tayyorgarlik kerakdir. Harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning asosiy vositasidir. Harakatli o'yinlar bolalarning harakat faoliyati jismoniy rivojlanishiga, harakat ko'nikmalari va jismoniy sifatlarning shakllanishiga, organizmning funktsional faoliyatini oshirgan va emotsional quvnoqlik tuyg'ularini kuchaytirgan holda salomatlikni mustahkamlashga ijodiy ta'sir etadi.

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda erishiladigan sog'lomlashtirish samarasi bolalarning o'yin faoliyati jarayonida yuzaga keladigan va bola ruhiyatiga yaxshi ta'sir etadigan ijobiy emotsiyalar bilan uzviy bog'liqdir. Emotsional ko'tarinkilik bolalarda barcha uchun umumiy bo'lgan maqsadga erishishga intilish uyg'otadi va u vazifalarni aniq tushunishda, harakatlarning o'zaro mosligida, fazoda va o'yin sharoitlarida aniq mo'ljallashda, topshiriqlarni tezlashtirilgan sur'atda bajarilishida ifodalanadi.

Maktabga tayyorlov guruhi bolalari birmuncha murakkab harakatli o'yinlar, shuningdek jamoa musobaqalaridan iborat komanda o'yinlarni, o'yin estafetasi, sport o'yinlarini o'ynaydilar. Bularning hammasi chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilikni rivojlanishi, harakat ko'nikmalrining takomillashuviga, axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Bolalarni harakatli o'yinlarda maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhlarida birmuncha murakkab bo'lgan harakatli o'yinlar qo'llaniladi. Ushbu harakatli o'yinlar orqali bolalarda axloqiy va irodaviy sifatlarning shakllanishida muhim hisoblanadi. Harakatli o'yinlarni amalga oshirish orqali bolalarda



chidamlilik, o'zaro hurmat, sabr-toqat, tengdoshlari bilan munosabatga kirishishda osonlik kabi fazilatlar shakllanadi. Albatta bu harakatli o'yinlar tayyorlov guruhida murakkabroq bo'ladi, chunki bu yoshda bola o'z harakatlarini bema'lol, oson va qiyinchiliklarsiz boshqara oladi.

References:

1. Tulenova. X., Xo'jaev. P., Xo'jaeva .Meliev. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T; Iqtisod-Moliya 2012y o'quv qo'llanma.
2. Makamjonov. K., Salomov. R., Ikromov. I. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik T; Iqtisod-Moliya 2008y i
3. Xo'jaev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B «Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi» Cho'lpon nashriyoti Toshkent 2011 y
4. T.Usmonxo'jaev, M. Toirova, X.Sagdiev, T.Sharipov. "Kichkintoylarga 200 ta harakatli o'yinlar"
5. D.Zayniddinova, G.Usmonxodjaev. "Bolalar uchun harakatli o'yinlar". Tosh. "Yangi asr avlodi" 2006y
6. T.S.Usmonxo'jaev, S.T.Islomova. "Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya" Tosh. – "Ilm ziyo" 2006y
7. M.Daminov, T.Adambekova. "O'yin mashg'ulotlari" Toshkent. 1993y.